



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2023/1 (6)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RIFOVA Gulnora Mahmudovna – Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirining birinchi o'rinnbosari.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмурадов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – первый заместитель министра по поддержке Махалли и семьи.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайрullaевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акмал Холматович – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Дилобар Батировна – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Дилярам Гафуржановна – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Баходир Хамидович – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Азамад Хамидович – доктор исторических наук, профессор.

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhammadovna – First Deputy Minister of the Minister of Mahalla and family support.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullaevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Kholmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

Pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашимини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Иосифовна,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

OILA VA JAMIYAT

Norqulov X., Nurmonova Z. Dunyoda o‘z joniga qasd qilish epidemiologiyasi: xavf omillari va gender paradokslar	4
Maxmudova M.A. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xorijiy tajribaning ahamiyati	11
Yulchiyeva D.X. Jamiyatda va oilada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda xalqaro standartlarning roli.....	16
Sultanova Sh.G. Jamiyatda ayollar faolligining ijtimoiy-psixologik muammolari.....	21
Nomozova O‘A. Sharq allomalari asarlarida nutq odobi haqidagi qarashlar va ularning oilaviy munosabatlardagi o‘rni	26

PSIXOLOGIYA

Saribayeva U.S. Gender yondashuvlar ijtimoiy psixologiya predmetining bir sohasi sifatida shakllanishi	31
Abdullayeva D.U. O‘smir farzand va ona o‘rtasidagi munosabatlar psixologiyasi	37
Маркендуми М.А. Концептуальная идея профилактики химической зависимости в высших учебных заведениях	42
Абдуллаев А.Ш. Социально-психологические аспекты проявления буллинга в отношении женщин-педагогов в школах	46
Усманалиева Г.А. Социально-психологические аспекты языковых коммуникативных способностей	51
Yangiboyeva D.R. Akkulturatsiya jarayonida talaba yoshlarda qadriyatlar tizimining etnopsixologik o‘ziga xosligi masalalari	55

PEDAGOGIKA

Muxsiyeva A.Sh. O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishning integrativ tuzilmasi va komponentlari	62
Mirzayeva F.O. Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirishga qo‘yilayotgan talablar	68
Bayjonov F.B. Oilada gender madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari.....	73
Dadaboyeva Z.M. Bo‘lajak kasbiy ta’lim o‘qituvchilarini kompyuter modellashtirishga tayyorlash	77
Abdug‘aniyeva D.A. Oliy ta’lim muassasasi talabalari coping-strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.....	83

DEMOGRAFIYA

Sadullayeva J.I. Migrant ayollar muammolarining xorij tajribasida o‘rganilganligi	90
--	----

SOTSILOGIYA

Nurullayeva U.N. Xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati sotsiologik tahlil obyekti sifatida.....	95
--	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Akbarova Z.A. Gender tengligini ta’minlashda psixologik yondashuvning muhim omillari ..	101
--	-----



Akbarova Zarnigor Akbarjon qizi,
Qo‘qon universiteti 2-bosqich talabasi

GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVNING MUHIM OMILLARI

Annotatsiya. Bugungi globallashuv jarayonida xotin-qizlarning o‘rni va roli har qachongidan-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g‘oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini ta’milash, ularning oila va jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash, gender tenglikni ta’milash, qolaversa, turli tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilmoqda. Maqolada zo‘ravonlikka uchragan ayollar soni aniqlanib, atroficha tahlil qilingan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda gender tenglikni ta’milash, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar o‘rganilgan, xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: gender, gender tenglik, psixologik trening, zo‘ravonlik, ayollar, oila, tarbiya.

Аннотация. В сегодняшнем процессе глобализации место и роль женщин становятся как никогда важными. Поэтому основным содержанием реформ является поддержка женщин в выдвижении новых идей и инициатив, обеспечение их активного участия в изменениях и общественно-политических процессах, происходящих в нашей стране, улучшение их положения в семье и обществе, укрепление, обеспечение гендерного равенства, а также защита от различных притеснений и насилия. В статье было определено и подробно проанализировано количество женщин, подвергшихся насилию в стране. А также изучены проводимые в развитых странах реформы по обеспечению гендерного равенства и предотвращению насилия в отношении женщин и разработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, психологический тренинг, насилие, женщины, семья, воспитание.

Annotation. In today’s globalization process, the place and role of women is becoming more important than ever. Therefore, the main content of the reforms is to support women to come up with new ideas and initiatives, to ensure their active participation in the changes and social-political processes taking place in our country, to improve their position in the family and society. Strengthening, ensuring gender equality, as well as protection from various oppressions and violence. In the article, the number of women subjected to violence in the country was determined and analyzed in detail. In addition, reforms carried out in developed countries to ensure gender equality and prevent violence against women were studied and conclusions and proposals were developed.

Keywords: gender, gender equality, psychological training, violence, women, family, upbringing.

Kirish. Gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy tenglik. Gender

ijtimoiy jins degan tushunchani beradi va ularning tengligini e’tirof etadi. Jins bo‘yicha bevosita kamsitish – jamiyat hayot va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash,

shu jumladan, oilaviy holati, homiladorligi, oilaviy majburiyatlari tufayli kansitish, shahvoniy tegajog‘lik qilish, teng mehnat va malakalari uchun har xil haq to‘lash nazarda tutiladi¹. Bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo‘yadigan vaziyatlar, holatlar yoki mezonlar yaratish, shu jumladan, gender tengsizlikni oilaviy, axborot vositalari, ta’lim, madaniyat orqali targ‘ib etish muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ushbu holatlarning oldini olish maqsadida hukumat tomonidan bir qancha loyihalar, chora-tadbirlar, qaror va farmonlar ishlab chiqilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli Qonunlari qabul qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 4-martdagagi “Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasini tashkil etish to‘g‘risida” KQ-311/1-IV-ton qarorining 1-bandida:

- gender tenglik hamda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalgaga oshirish;
- gender tenglik hamda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash borasidagi ishlarning amaldagi holatini o‘rganish, mavjud muammolarni tanqidiy tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalgaga oshirish;
- xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari sohasidagi

¹ Saidova L.A. O‘zbekistonda gender tengligi va zo‘ravonlikning oldini olishning muhim masalalari / O‘quv-amaliy qo‘llamna. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi 2022. – 34 b.

xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshirish belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish borasida “Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart. Afsuski, biz uzoq vaqt bu masalaga yetarlicha e’tibor bermasdan, hurmatli opa-singillarimizning dard-u tashvishlariga beparvo qarab kelganimiz tufayli yillar davomida to‘planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilish bugun, ochig‘ini aytish kerak, oson bo‘lmayapti. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, muhtaram opa-singillarimiz uchun munosib ish va turmush sharoitlarini yaratib berish bo‘yicha biz bor kuch va imkoniyatlarimizni to‘la safarbar etamiz”², – deya ta’kidlagan edi.

Gender tenglik samarali iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning omili hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda xotin-qizlarning o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta‘minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shunday imkoniyatlar berilganda undan to‘g‘ri va adolatli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorij tajribasi. M.K.M.Lünnemann va M.P.C.M.Luijk hammullifligida chop etilgan “The impact of cessation or continuation of family violence on children” nomli maqolada oilaviy zo‘ravonlik kamaygan yoki to‘xtagan bolalar o‘zlarining huquqbazarlik xatti-harakatlarida hali ham davom etayotgan oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarga qaraganda kamroq xilma-xillik ko‘rsatishini aniqlagan. Shuningdek, zo‘ravonlik kamayganida, bolalar travmadan keyingi stressni kamroq boshdan kechirishadi. Ushbu natijalar og‘ir oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalar ko‘proq travmadan keyingi stressni boshdan kechirishlarini ko‘rsatadigan oldingi tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashini belgilab bergen³.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутки.

³ Lünnemann M.K.M., Luijk M.P.C.M., Van der Horst F.C.P., Jongerling J., Steketee M., The impact of cessation or continuation of family violence on children, Children and Youth Services Review, Volume 140, 2022.

Mustamlakachilik zo'ravonligi Keniyada gender munosabatlarini doimiy ravishda shakllantirdi, patriarchal hukmronlikni kuchaytirdi va uni qonun, amaliyat orqali mustahkamladi. Faqat 2010-yilgi Konstitutsiya (2007-yilgi saylov zo'ravonligidan so'ng tinchlik kelishuvi bo'yicha konstitutsiyaviy referendum uchun mandatning o'zi) bilangina gender tengsizliklar, gender huquqlari, masalan, yer, mulk va bolalarga nisbatan zo'ravonliklarga qarshi kurash olib borildi. Shunga qaramay, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy holati, asosan, odatiy me'yorlar va qoidalar bilan belgilanishi davom etmoqda⁴.

N.Duvvuri o'zining tadqiqotida ilmiy izlanishlar natijasini quyidagicha bayon etadi: "Zo'ravonlik haqidagi tadqiqotlarning ko'p qismi, birinchi navbatda, JSSTning ayollar salomatligi va oiladagi zo'ravonligiga, ko'p mamlakatlari tadqiqotidan so'ng yaqin munosabatlardagi jismoniy va/yoki jinsiy zo'ravonlikka qaratilgan. Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqilgan mamlakatlarda jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikning faqat yaqin sherik tomonidan tarqalishi Ganada 30% dan ortiqni tashkil qiladi. Zo'ravonlikka duchor bo'lgan shaxslar, odatda, turli xil jismoniy, psixologik va moliyaviy ta'sirlardan aziyat chekishadi"⁵.

Fransiyada oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha quyidagi amaliyat mavjud: aholi o'rtasida oiladagi zo'ravonlik yuzasidan so'rovlari o'tkazish va ularni tahlil qilib borish; psixologlar muntazam ravishda jabrlanganlar ro'yxatini tuzib, ular bilan ishlarni tashkil etib borishi; zo'ravonlikka duchor bo'layotgan va bo'lgan shaxslar uchun vaqtinchalik boshpana-manzilgohlar faoliyati tashkil etilishi; kecha-yu kunduz faoliyat yurituvchi ishonch telefonlarining faoliyat yuritishi⁶.

Tahlil va natijalar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ayollarga nisbatan zo'ravonlikni "Ayollarga jismoniy, jinsiy, ruhiy zarar yoki azob-

⁴ Natascha Mueller-Hirth, Stephen Vertigans, Neil Gibson, Women's gendered experiences of political instability: Kibera during the 2017 Kenyan elections, Women's Studies International Forum, Volume 96, 2023.

⁵ Duvvury N., Scriver S., Gammage S., John N., The impacts of violence against women on choice and agency: Evidence from Ghana and Pakistan, Women's Studies International Forum, Volume 89, 2021.

⁶ Murodov A.Sh., Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish: milliy va xorijiy tajriba. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol 15-sentabr, 2022-yil.

uqubatlarga olib keladigan, olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday jinsga asoslangan zo'ravonlik harakati, shu jumladan, bunday harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash yoki o'zboshimchalik bilan mahrum qilish" deb ta'riflaydi⁷.

Zo'ravonlikdan a'ziyat chekkanlarning hisobotlariga asoslangan aholi darajasidagi so'rovlari yaqin sheriklar tomonidan zo'ravonlik va jinsiy zo'ravonlik tarqalishining eng aniq taxminlarini beradi. JSST tomonidan BMTning ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha idoralararo ishchi guruhi nomidan 2000–2018-yillardagi 161 mamlakat va hududlarda o'tkazilgan 2018-yildagi ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, butun dunyo bo'ylab ayollarning deyarli har 3 tadan 1 nafari yoki 30 foizi zo'ravonlikka duchor bo'lgan⁸.

O'zaro munosabatlarda bo'lgan 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollarning chorak qismidan ko'prog'i umrida kamida bir marta (15 yoshdan boshlab) yaqin tanishlari tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgan. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik sodir etilganini aniqlash maqsadida dunyo miqyosida o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot ma'lumotlariga asosan, Tinch okeanining G'arbiy mintaqasida 20%, Yevropa mintaqasidagi yuqori daromadli mamlakatlarda 22%, Amerika mintaqasida 25%, Afrika mintaqasida 33%, Sharqiy O'rtayer dengizi mintaqasida 31% va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida 33% ni tashkil etadi⁹.

Turli xil taskilotlar, ishchi guruh, komissiyalar tomonidan O'zbekistonda yuqoridagi ijtimoiy so'rovlari o'tkazilmagan sababli aniq ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun mamlakatdagi gender tenglik masalalarini berilgan statistik ma'lumotlarga asosan tahlil qilib ko'ramiz.

"Ijtimoiy tarmoqlarda har kuni u yoki bu hududda zo'ravonlikka uchragan ayollar haqida axborotlar kelib turibdi. Umuman olganda, birinchi yarim yillikning uch oyida oilalarda tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rganlar soni oldingi yilning


⁷ United Nations. Declaration on the elimination of violence against women. New York : UN, 1993.

⁸ Violence against women Prevalence Estimates, 2018. Global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence against women. WHO: Geneva, 2021

⁹ <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

uch oyiga qaraganda ikki yarim baravarga ortgan. 2021-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, yurtimizda 6688 nafar xotin-qiz tazyiqqa uchragan bo‘lsa, 1-iyul holatiga ko‘ra, ularning soni 17 919 nafarga yetgan. Ya’ni uch oy ichida 11 000 nafarga ortgan”, – deya ta’kidladi Tanzila Norboyeva¹⁰.

Yuqoridagi ma’lumotlarni o‘rgansak, 2021-yilning 1-choragida 6688 nafar, shu yilning 2-choragida esa 11 231 nafar ayol zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan. 2022-yil 26-aprelda IIV huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati boshlig‘i o‘rinbosari, polkovnik Umida Abdullayeva, Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i Bahodirjon Qahhorov hamda Bosh prokuratura bo‘lim boshlig‘i O‘ktam O‘tayevlar ishtirokida AOKAda o‘tkazilgan matbuot anjumanida quyidagilar ma’lum qilindi: 2021-yil davomida ichki ishlar organlariga xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari yuzasidan 39 343 ta murojaat kelib tushgan. Ularning barchasiga himoya orderlari rasmiylashtirib berilgan bo‘lib, orderlarning 378 tasi voyaga yetmaganlarga, 9861 tasi yoshlar (18–30 yosh)larga, 29 104 tasi esa 30 yoshdan katta xotin-qizlarga berilgan. Quyida keltirilgan ko‘rsatkichlardan ko‘rish mumkinki, 2021-yilning 3-4-choragida 21 424 nafar ayol zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan.



Yuqoridagi tahlil natijalaridan shuni ko‘rish mumkinki, 2021-yilning o‘zidayoq zo‘ravonlikka uchragan ayollar soni chorakma-chorak keskin oshib bormoqda. Ushbu holatlarga samarali yechim topish maqsadida hukumat tomonidan bir qancha chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

¹⁰ Хотин кизлар жамоатчилик кенгаши хамда Гендер тенглик масалалари бўйича комиссиянинг кенгайтирилган йигилишиги нутки. 2021 йил 25 август

¹¹ Муаллиф ишланмаси.

Jumladan, 2019-yil 28-dekabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senatida bo‘lib o‘tgan majlisda himoya orderini berish tartibini joriy qilish va amaliyotga tatbiq qilish maqsadida xorijiy tajriba o‘rganilib, uning loyihasi ishlab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan¹². Shu bilan bir qatorda, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berishda hamkorlik standartlarini mahalliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etildi. Uning a’zolari tomonidan sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish, psixologik ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatishning minimal standartlari joriy etilishi yuzasidan xalqaro tajriba o‘rganilmoqda. Bundan tashqari, “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan O‘zbekistonda Gender tenglik sohasidagi muammolarni o‘rganishga bag‘ishlanagan ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi. Siyosiy va huquqiy bilimli, innovatsion g‘oyalarga va tashkilotchilik qobiliyatiga ega xotin-qizlardan iborat 6000 nafardan ortiq kadrlar zaxirasi shakllantirilib, 2019-yil 22-dekabr bo‘lib o‘tgan saylovda deputatlikka nomzod sifatidagi faol ishtiroki ta’mindan. O‘tgan qisqa davrda komissiya tomonidan joylarda 197 ta zo‘rlik ishlatilishidan jabr ko‘rgan shaxslarni realibilitatsiya qilish va moslashtirish markazi tashkil etildi¹³. 2022–2030-yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida har yili alohida-alohida kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlanadi.

Hozirgi kunda zo‘ravonlikdan a’ziyat chekkan fuqarolarni himoya qiluvchi 24 ta reabilitatsiya markazi faoliyat yuritmoqda. Bunday markazlar Respublikaning barcha tumanlarida zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar va bolalarga yordam berib kelmoqda.

Xulosa va takliflar. So‘ngi besh yillikda ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratish, xotin-qizlarni ijtimoiy huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirokini ta’minalash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Gender

¹² Xalq сўзи газетаси, 30 декабр, 2019 йил // <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-gender-tenglikni-taminlash-masalalari-boyicha-komissiyasi-oz-faoliyatini-sarhisob-qildi>

¹³ Xudoyberdiyeva G. Toshkent davlat yuridik universiteti ixtisoslashtirilgan filiali dotsenti, yuridik fanlar nomzodi. Gender tenglikni ta’minalash ijtimoiy adolatning asosi. 2021.

tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 20 dan ortiq qonunchilik hujjati qabul qilindi.

Shunga qaramay, mamlakatimizda ayollarga jismoniy, jinsiy, ruhiy tazyiq o‘tkazish yoki azob-uqubatlarga olib keladigan, olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday jinsga asoslangan zo‘ravonlik harakatlari kundan kunga avj olmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va televideniyeda bu borada ko‘plab ma‘lumotlar tayyorlanib, omma e’tiboriga havola qilinmoqda. Ushbu materiallardan bilish mumkinki, mamlakatimizda eng ko‘p tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollar turmushga chiqqan ayollar bo‘lib, ular turmush o‘rtog‘i tomonidan turli xil qarshiliklarga uchrab kelmoqda. Mazkur holat, asosan, nosog‘lom oilalarda ko‘proq uchramoqda. Qolaversa, ayollarning huquqiy bilimi yetarli emasligi, qizlarni erta turmushga berish, qaynonalarning turli xil orzu-havaslarga berilishi buning asosiy sabablari bo‘lib qolmoqda.

Keling, raqamlarga e’tibor qarataylik. 2020-yilda 14 774 nafar ayolga himoya orderi berilgan bo‘lsa, 2021-yilning 10 oyida esa 32 154 nafar ayol bunday orderdan foydalandi va o‘z huquqlarini himoya qildi¹⁴.

Himoya orderidan foydalangan ayollar sonining oshishi muammolar ko‘payganini anglatmaydi. Aksincha, bu jamiyatimizda ayollar orasida huquqiy madaniyatning oshib borayotgani va joylarda profilaktika inspektorlari samarali faoliyat yuritayotganidan darak beradi.

Yuqoridaq holatlar hamda natijalarni tahlil qilgan holda mamlakatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha bir nechta taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ayollarning huquqiy bilimini oshirish, tushkunlikka tushgan, turli xil tazyiq, zo‘ravonlik va bosimga duch kelgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida psixolog, motivator va ekspertlarni jalb qilishi orqali turli xil metodlar, treninglar, seminarlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Qolaversa, ushbu seminar-treninglar orqali ayollar o‘z huquqlarini himoya qilish hamda kamsitishga qarshi kurash usullari to‘g‘risida ma‘lumot olishlari mumkin.

¹⁴ Qodirxonova M.A. O‘zbekistonda zo‘ravonlikka qarshi kurash: xalqaro tajriba va yechim. “Ijtimoiy boshqaruv” jurnali, 29.01.2022-y. 3-son.

Ikkinchidan, mahalla, maktab, kollej, universitetlar, ruhiy kasalxonalar, narkologik dispanserlar, poliklinikalar, qisqa qilib aytganda, davlat tashkilotlarida psixologik treninglar o‘tkazilishi, qizlar bilan suhbatlashish orqaligina ularni turmushga tayyorlash, gender tenglikni ta‘minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash mumkin.

Uchinchidan, oilada zo‘ravonlikka chek qo‘yish maqsadida mahalla, korxona va tashkilotlar hamda oliy ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitalari tuzish ijobiy natija beradi. Shuningdek, “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” shiori ostida trening, aksiyalar o‘tkazilishi va televideniyelarda ayol-qizlar mavzusida ko‘rsatuvlarni ko‘paytirish, yosh onalar farzandlarini tarbiyalashda psixologlarni mas’ul qilish orqali gender tenglikni ta‘minlashga salmoqli hissa qo‘shish mumkin.

To‘rtinchidan, Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlari – ilg‘or xorijiy tajribaning mamlakatimiz amaliyotiga integratsiya qilinishi. 2018-yildan boshlab bizning hayotimizga “shelter” tushunchasi kirib keldi. Bu atama avval boshidan zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga nisbatan qo‘llanadi. Hozirda ular Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlari, deb yuritilmoqda.

Beshinchidan, xotin-qizlarning yer va mulkka egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtiroy etishlarini qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saidova L.A. O'zbekistonda gender tengligi va zo'ravonlikning oldini olishning muhim masalalari / O'quvamaliy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 34 b.
2. Lünnemann M.K.M., Luijk M.P.C.M., Van der Horst F.C.P., Jongerling J., Steketee M., The impact of cessation or continuation of family violence on children, Children and Youth Services Review, Volume 140, 2022.
3. Natascha Mueller-Hirth, Stephen Vertigans, Neil Gibson, Women's gendered experiences of political instability: Kibera during the 2017 Kenyan elections, Women's Studies International Forum, Volume 96, 2023.
4. Duvvury N., Scriver S., Gammage S., John N., The impacts of violence against women on choice and agency: Evidence from Ghana and Pakistan, Women's Studies International Forum, Volume 89, 2021.
5. Murodov A.Sh. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish: milliy va xorijiy tajriba. O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol 15-sentabr, 2022-yil.
6. Xudoyberdiyeva G. Toshkent davlat yuridik universiteti ixtisoslashtirilgan filiali dotsenti, yuridik fanlar nomzodi. Gender tenglikni ta'minlash ijtimoiy adolatning asosi, 2021.
7. Qodirxonova M.A.. O'zbekistonda zo'ravonlikka qarshi kurash: xalqaro tajriba va yechim. "Ijtimoiy boshqaruv" jurnali, 29.01.2022 y. 3-son.

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2023/1 (6)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Xusenova N., Razzakova N.,

Sobirova E., Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 13.12.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilii ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.